Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

XOTIN-QIZLARNI IQTISODIY-IJTIMOIY SOHADAGI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI

Xolmirzayev Furqatbek Muxtarjonovich
“University of Economy and Pedagogy” NOTM assistenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi o’rnini kengaytirish, va mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush darajasini oshirishdagi ahamiyati haqidagi fikrlar bayon etilgan*

Kalit so’zlar: *ijtimoiy holat, iqtisodiyot, ish bilan bandlik, tadbirkorlik, turmush darajasi*

Hozirgi davrda hukumatimizning asosiy vazifasi aholini ijtimoiy himoya qilishga, shuningdek asosan xotin-qizlarni va ishsizlikni kamaytirish maqsadida turli hil ko’rinishdagi amaliy ishlarni ro’yobga chiqarmoqdalar.

Biz Andijon viloyati Pahtaobod tumani misolida aholini ijtimoiy holati va xotin qizlarni ijtimoiy himoya qilish chora tadbirlari to’g’risida tahlil qilib, tumanda mahallalar soni – 67 ta, aholi soni – 208,7 ming nafar, hududdagi xonadonlar soni – 39,2 mingta, ishsizlar – 6,7 ming nafar (ishsizlik darajasi – 9,1 foiz), xorijga ishlashga ketganlar – 15,6 ming nafar, maktab bitiruvchilari 2140 nafar.

Ishsizlik darajasi yuqori mahallalar fuqarolari yig’inlari – 8 ta (Yangiobod, Shuvoqzor-Boykechik, Soxil, Durdiyor, Pushmon, Iltifot, Guldiyor, Do‘stlik), shuningdek kambag‘al oilalar soni – 9 704 ta.

01.01.2024 yil holatiga jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes subyektlari – 1817 ta, xorijiy va qo‘shma korxonalar – 6 ta. Faoliyat ko‘rsatmayotganlari – 772 ta.

2023 yilda:

a) sanoat mahsulotlari hajmi – 961,6 mlrd. so‘m (106 foiz);

b) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi hajmi – 3,9 trln. so‘m (107 foiz);

v) xizmatlar hajmi – 862 mlrd. so‘m (112 foiz);

g) o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar – 16 mln. dollar (126 foiz);

d) eksport hajmi – 20,0 mln. dollar (100 foiz), shu jumladan sanoat eksporti – 15,2 mln. dollar, qishloq xo‘jaligi – 4,8 mln. dollar;

ye) soliq tushumlari hajmi – 27 mlrd. so‘m (110 foiz);

j) yaratilgan yangi ish o‘rinlari – 31 ming nafar (120 foiz);

z) jami muammoli kredit – 20,4 mlrd. so‘m (qo‘yilmaning 29 foizi). Shundan, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 13,7 mlrd. so‘m (qo‘yilmaning 11,9 foizi);

Ijtimoiy soha va infratuzilma holati (1 yanvar holatiga):

a) uy-joyga muhtoj oilalar soni – 264 ta;

b) mahallalarda 25 km yo‘llar ta’mirtalab;

v) markazlashgan ichimlik suvi yetib bormagan, biroq alternativ ichimlik suvi manbalaridan 18,1 ming nafar aholi foydalanadi (ta’minlanganlik darajasi – 91,1 foiz).

Published: 17.05.2024

Cite this article: Xolmirzayev Furqatbek Muxtarjonovich (2024). Xotin-qizlarni iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi rivojlantirish yo‘llari. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/114

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

g) maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi – 88 foiz, bog‘cha mavjud bo‘lmagan mahallalar soni – 4 ta (Rohat, Ming o‘rik, Haqiqat, O‘rikzor);

d) o‘quvchilari 30 nafardan ko‘p sinflar soni – 181 ta, ta’mirtalab maktablar soni – 3 ta.

Ishsizlik bo‘yicha:

Tumanda xatlov natijasida 7699 nafar ishsizlar aniqlandi. Shundan ayollar 3705 ta, yoshlar 1301 tani tashkil etadi. Migrantlar soni 15,6 ming nafar. 2024 yil davomida mehnat bozoriga 2,1 mingta bitiruvchilar kirib keladi.

Aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi doirasida 67 ta MFYdagi 19,1 ming nafar aholini bandligini ta’minlash rejalashtirilgan, bunda.

- 3,9 ming nafari doimiy;
- 11,3 ming nafari mavsumiy;
- 3,8 ming nafari vaqtinchalik ishlarda band qilish hamda
- 3,1 ming nafarini 1-chorakda;
- 8,8 ming nafarini 2-chorakda;
- 4,5 ming nafarini 3-chorakda;
- 2,5 ming nafarini 4-chorakda.

-992 nafar ish bilan band bo‘lmagan fuqarolarni kasb-hunar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish:

-168 nafarini 1-chorakda;

-297 nafarini 2-chorakda;

- 348 nafarini 3-chorakda;

- 179 ming nafarini 4-chorakda o‘qitilishi rejalashtirilgan

Yanvar oyi rejasi 167 nafarni tashkil etib, amalda 205 nafarga bajarildi, yoki rejaga nisbatan 122 foizga bajarildi.

Chetda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolarni “Ishga Marhamat” Mono-markazi orqali chet tili (Nemis, Ingliz, koreys, Yapon tillari A1, A2, B1, B2) sertifikatlariga o‘qitish hamda Migratsiya agentligi Andijon viloyati filiali bilan hamkorlikda ish beruvchi chet davlatlariga yuborish ishlari olib borilmoqda.

2024 yil davomida Paxtaobod tumanida 29,0 dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘zlashtiriladi.

"2U" MCHJ tomonidan agrosanoat klasterini tashkil etish loyihasi. Loyihaning umumiy qiymati 28,5 mln.dollar, shundan 2024 yilda o‘zlashtirish prognozi 10,0 mln dollar. "Xojaobod fayz-m" MCHJ tomonidan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi. Loyihaning umumiy qiymati 16,0 mln.dollar, shundan 2024 yilda o‘zlashtirish prognozi 10,0 mln dollar. "Samtex premium" MCHJ (Skorton tekstil MCHJ) paxta tolasini tayyorlash va yig‘ishtirishni tashkil etish loyihasi. Loyihaning umumiy qiymati 10,0 mln.dollar, shundan 2024 yilda o‘zlashtirish prognozi 9,0 mln dollar. Yanvar oyi o‘zlashtirish prognozi 2,3 mln.dollarni tashkil etib, amalda 2,3 mln.dollarga bajarildi.

Sanoat sohasida "UNIVERSE MAX STAR"MCHJ tomonidan umumiy qiymati 12,0 mlrd.so‘m investitsiya mablag‘lari hisobiga “GM plastik buyumlari ishlab chiqarishni tashkil etish (Sobalt va Onix uchun eshik ruchkasi va plstik detali)”

loyihasi amalga oshiriladi. Loyiha amalga oshirilishi natijasida 20 nafar yangi ish o‘rinlari yaratiladi hamda 10 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Xulosa qilib aytganda tumanning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi va aholini ijtimoy himoya qilish kambag’allikni qisqartirish shuningdek xotin qizlarni ijtimoiy qo’llab quvvatlash ko’rsatkichlari davr talablariga mosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Me’yoriy hujjatlar to’plami 2022-2024.
2. Pahtaobod tumani statistik ma’lumotlari.
3. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/51693-milliy-statistikani-rivojlantirish-ustuvor-vazifa

O’ZBEKISTONDA AXBOROT HAVFSIZLIGI

Abduqayumov Jaloliddin Jo‘rabek og‘li
TDIU Andijon fakulteti
Iqtisodiyot talim yo‘nalishi 60/23 guruh talabasi
Kurbonov Jasurbek Pozilovich
TDIU Andijon fakulteti
“Mutaxassislik fanlari” kafedrasi mudiri, PhD

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan axborot xavfsizligini ta’minlash, turli xil axborot xujumlaridan saqlanish yuzasidan taxliliy ma’lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *xavfsizlik, axborot, dasturiy ta’minot, internet, parol, kiberxavfsizlik.*

Hozirgi kunda axborot xavfsizligini taminlash tobora dolzarb muammoga aylanib bormoqda chunki borgan sayin axborotga bo‘lgan tahdidlar ortib bormoqda. Misol uchun dunyoning yirik banklariga bo’layotgan xakerlarning hujumlari, bank mijozlarning plastik kartalaridan noqonuniy pul yechib olishlar, davlat idoralaridagi tizimlarga bo’layotgan tajovuzlarni misol qilishimiz mumkin. Bilamizki, axborot eng qimmatli narsalardan biri hisoblanadi. Axborot xavfsizligi nimaga kerak deganda axborotni boshqargan odam dunyoni boshqaradi bu yaqqol ko’rinib turibdi. Chunki, bir yolg’on axborot bilan butun bir jamiyatning hayotini yaxshilash yoki barbod qilib yuborish mumkin. Hamda hozirgi kunda asosan qurolli urushlar emas, balki axborot urushi avj olgan davrda yashamoqdamiz. Bundan tashqari eng kuchli qurol bu ma’naviy qurol hisoblanadi. Bu quroldan foydalanish uchun esa axborot katta ro’l o’ynaydi.

Davlat, harbiylar, korporatsiyalar, moliya institutlari, tibbiyot muassasalari va xususiy korxonalar o‘z xodimlari, mijozlari, mahsulotlari, tadqiqotlari va moliyaviy natijalari haqida doimiy ravishda katta miqdordagi maxfiy ma’lumotlarni to‘playdi.